

SamDVMCHBU “Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport” kafedrasи o‘qituvchisi S.Karoboyevning O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanidan “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma’naviy va madaniy taraqqiyot” mavzusidagi ochiq ma’ruza mashg‘uloti ishlanmasiga

TAQRIZ

O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanidan namunaviy dastur asosida ishlab chiqilgan ishchi o‘quv dasturi (sillabusi) asosida tayyorlangan bo‘lib, ma`ruza matni tegishli reja asosida yoritilgan. Rejada qo‘yilgan savollar uslubiy tomondan tog‘ri taqsimlangan bo‘lib, unda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalilanilgan.

Ma’ruzada dastlab mashg‘ulotning oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalari aniq ko‘rsatib berilgan. Ma’ruza mashg‘ulotning texnologik xaritasida o‘quv mashg‘ulotlarining vaqt me’yorlari aniq ko‘rsatib berilgan. Taqdimotda Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma’naviy va madaniy taraqqiyotiga oid muhim ahamiyatli jihatlar aniq ko‘rsatib berilgan. Talaba ma’ruza darsi jarayonida Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma’naviy va madaniy taraqqiyot, uning rivojlanish bosqichlari haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘ladi.

Bu mavzu bo‘yicha tayyorlangan slaydlar orqali talabalarda mavzu bo‘yicha bilim va ko`nikmalar hosil bo`ladi. Ishlanmada test sinovlari, nazorat savollari va foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati berilgan bo‘lib barcha talablarga javob beradi.

O‘qituvchi S.Karoboyevning “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma’naviy va madaniy taraqqiyot” mavzusidagi ma’ruza mashg‘ulotining taqdimoti hozirgi zamon ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi, deb hisoblayman .

Ushbu dars ishlanmasi keng miqyosda universitetning barcha ta’lim yo‘nalishlarida foydalansa bo‘ladi, deb hisoblayman va tavsiya etaman .

**SamDU “Tarixshunoslik va manbashunoslik”
kafedrasи mudiri, tarix fanlari doktori,
professor:**

B.Ergashev

Samarand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi o‘qituvchisi S.Karoboyevning O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanidan “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma’naviy va madaniy taraqqiyot” mavzusidagi ochiq ma’ruza mashg‘uloti ishlanmasiga

TAQRIZ

O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanidan ishlab chiqilgan ushbu ochiq ma’ruza dars ishlanmasi ishchi o‘quv dasturi (SILLABUS) asosida tayyorlangan bo‘lib, ma’ruza matni tegishli reja asosida ketma-ketlikda bayon qilingan. Rejada mavjud masalalar uslubiy tomondan tog‘ri taqsimlangan va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda yoritilgan. Ma’ruzada mashg‘ulotning oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalari, mashg‘ulotining texnologik xaritasida o‘quv mashg‘ulotlarning vaqt me’yorlari aniq ko‘rsatib berilgan. Taqdimotda mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma’naviy va madaniy taraqqiyotga oid ma'lumotlar belgilangan reja asosida, ya’ni Beshta tashabbus va uning yuksak ma’naviy madaniyatni ta’minlashdagi o‘rni, O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta’minlash borasidagi davlat siyosati masalalari yetarlicha ko‘rsatib berilgan. Talabalar ma’ruza darsi jarayonida Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma’naviy va madaniy taraqqiyot, uning rivojlanish bosqichlari haqida kerakli ma’lumot olishadi.

O‘zbekistonda ma’naviy va madaniy taraqqiyot mavzusi bo‘yicha tayyorlangan bir qancha slaydlar orqali talabalarda mustaqillik yillarida ma’naviy va madaniy taraqqiyot sohasida amalga oshirilgan islohotlar haqida bilim va ko'nikmalar hosil bo‘ladi.

S.Karoboyevning “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma’naviy va madaniy taraqqiyot” mavzusidagi ma’ruza mashg‘ulotining taqdimoti muhim va ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashtirilgan, deb hisoblayman.

Ushbu ochiq ma’ruza darsi ishlanmasini universitetning barcha yo‘nalishlarida foydalansa bo‘ladi, deb hisoblayman va tavsiya etaman.

“Ijtimoy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi dotsenti,

tarix fanlari nomzodi:

O. Turg‘unboyev